

**TARIX FANI O'QITISHDA ZAMONAVIY USULLAR****Jo'rayeva Nargiza Yo'lchibayevna**

Namangan viloyati Pop tumani 65-maktab Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Tarix fani ta'limning barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy fan sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil etish orqali tarixiy ta'limni qanday qilib yanada samarali tashkil qilish mumkinligini muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** samarali o'qitish, tarixni o'qitish, tarixni samarali o'qitish, tarixiy empatiya.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O'zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz" [1]. Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va izzatlar bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi. "Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik, adolatli yondashuv muhim hisoblanadi. Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta'lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi.[1]

Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, samarali o'qitish bu o'z o'lchovlari bilan baholanishi kerak bo'lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi. Samarali o'qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular:

- Talabalarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish;
- Sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o'qitish strategiyalari, usullar va texnologiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirish;

Yana bir qarashga ko'ra, samarali ta'limni talabalarning muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy o'qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu fikrlar qurshovida aytish mumkinki, samarali ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g'ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ'ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi. "Ta'lim" keng ma'noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon, tor ma'noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biridir. "Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisidir. "Ta'lim" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg'unlashtiradigan bo'lsak, ta'lim sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lim oluvchi o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir. Ta'lim sifati - bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi.[2]Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim sifati innovatsion rivojlanish natijalaridan biri emas, balki uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir. Ushbu tadqiqot sohasi bo'lgan tarix tushunchasi ilmiy soha va fan sifatida vaqt o'tishi bilan odamlar tomonidan qilingan harakatlar va faoliyatlarni o'rganish jarayoni hisoblanadi. Biroq, tarixiy jarayonda sodir bo'lgan barcha narsalarni o'rganish va ochib berish imkonsizdir. Chunki, tarixning pozitiv nuqtai nazarida aytilganidek, tarixiy ma'lumot sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday da'vo dalillarga, ayniqsa yozma dalillarga asoslanishi kerak. Shuning uchun tarixni o'tmish voqealari va dalillari haqida yozilgan axborot deb ta'riflash mumkin. J. Slater bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: ".....mohiyatan tarix o'tmishni o'rganish va bizning bilimlarimiz va fikrlarimizni bir vaqtning o'zida tasdiqlash usulidir". Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, "izlanish" yoki haqiqatni tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Bir fan sifatida tarix insoniyat tarixini o'zining noyob metodologiyasi orqali o'rganadi. Tarixiy metodologiya, tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir. Shunga asoslanib, tarixchining roli sifatida o'zining mustaqil ilmiy rivojlanishi jarayonida o'tmishni o'rganish, mavzuni aniq, real va to'liq tushunchalarini yoki tasvirlarini yaratish va barcha bu bosqichlar haqida fikrlash kabilar belgilanadi. An'anaviy tarix darslarini tashkil etishda talabalarga ma'lumot uzatish jarayoni odatda darslik yoki boshqa ikkilamchi tayyor manbalarini o'qish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon talim oluvchiga tayyor ma'lumotlarni eslab qolish va axborot sifatida qabul qilish ko'nikmasini

hosil qiladi xolos. Noan'anaviy interfaol, samarali tarix darslarida esa o'tmish haqida ishonchli ta'riflar va tushuntirishlarga erishish uchun yuqorida aytib o'tilgan ko'nikmalar va tarix o'qitish metodikasidan foydalanishga urg'u beriladi. Chunki tarix darslarida va tarixni tadqiq qilishda qo'llaniladigan pedagogik va tarixiy tadqiqot usullari o'quvchilarga o'tmishni tushunishda turli xil foydali qulayliklar berishi mumkin. Manbalarni o'rganish va yozma dalillarni aniqlash, manbani yoki berilgan dalillarni tayyorlagan shaxs(lar)ning shaxsiy fikrlarini aniqlash va yozma yoki boshqa manbalarda keltirilgan fikrlarning asl ma'nosini o'rganish jarayoni tarix o'qitishning yana bir jihatlaridir. Bu tarixiy haqiqatni qanday o'rganish mumkinligini o'rgatish demakdir. Samarali tarix o'qitish o'quvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma'lumotlar bilan birga manba va dalilarni taqdim etishni talab etadi. O'quvchi ma'lum tarixiy manbalarni (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g'oyat samaralidir. Zotan, tarix darslarida ta'lim oluvchining xotirasini rag'batlantiruvchi usullardan ko'ra, uning mustaqil fikrlashini ta'minlaydigan usullardan foydalanish foydali hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni tushunish va o'tmishni anglash uchun dalillarni o'rganish va ko'zdan kechirish talab etiladi. [3] Ammo tarixni tashkil etuvchi elementlar nafaqat ular haqida balki, o'tmish voqealari, bugungi kunda ma'lum bo'lgan tajribalar majmuasi hamdir. Ba'zi tadqiqotchilar tarixiy tafakkur jarayonlaridan foydalangan holda tarixni o'qitish amaliyotlari ko'plab tarixiy muammolar va mavzularni tushunishda muhim hissa qo'shishini ta'kidlaydilar. Bugungi zamonaviy ta'lim holati ta'lim tushunchasini qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirishni, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning toifalari va tamoyillarini tahlil qilish jarayoniga kirishni talab qiladi. Pedagogik ongning yangi modeli asta-sekin o'qituvchining ta'lim oluvchiga bevosita ta'sir etish amaliyotidan voz kechadi va ta'lim oluvchining o'z rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun barcha pedagogik makonning tuzilishini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Shunday qilib, har bir o'qituvchi o'z darslarini qiziqarli va mazmunli bo'lishga intiladi, bu esa ta'lim oluvchininglarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Xususan, tarix darslarida faktlarni assimilyatsiya qilish emas, balki turli davrlarning qadriyatlarini rivojlantirish, o'tmish odamining o'rniga o'zini qo'yish, uning fikrlarini, harakatlarini tushunish qobiliyati orqali shaxsni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi tarixiy empatiya yordamida amalga oshirilishi mumkin. Empatiya yunoncha - "ehtiros", "azob", "tuyg'u", boshqa odamning hozirgi hissiy holati bilan ongli hamdardlik ma'nosini bildiradi. Tarixiy empatiya esa tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslar hayotini o'zida his etish demakdir. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy hodisalarni jonlantirish orqali tarixiy mavzu yanada ishonchli bo'lishiga erishiladi va o'rganilayotgan

tarixiy hodisalarning o'ziga xosligini yaxshiroq ochib berishga imkon beradi. Tarix darslarida badiiy adabiyot namunalariidan foydalanish ham tarixiy haqiqatni aniqlashtirishga, o'tmishning yorqin tasvirlarini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni hikoya qilishda turli xil namoyishlarni qo'llash samarali hisoblanadi. Misol uchun, moddiy madaniyat obektlarining tasviriy ko'rinishlari, o'qitishning texnik(audio-vizual) vositalari shular jumlasidandir. Bularning barchasi o'quvchilarga tarixiy davrning muhitini tasavvur qilish, o'zini o'tmishda tarixiy hodisalar ichida his qilish tuyg'usini boshdan kechirish imkonini beradi. Tarixiy empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta'lim oluvchining qalbida taqdir, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur tarixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi. Tarixiy empatiya shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: Xayoliy sayohat. Tarix darsi jarayonida o'tmish kishisini ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsani tasvirlash talab etiladi. Misol uchun: "Men XVIII asrdagi Qo'qon xonligiga boraman va...", "...keling, feodal qal'asiga kiraylik..." singari kirish so'zlari yordamida ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan tarixiy davrga boshlab borish va tarixiy sayohat uyushtirish tarixiy empatiya shakllantirish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarning ijobiy tomoni shundaki, ta'lim oluvchilar tarixiy tafsilotlarga e'tibor berishadi. Xayoliy intervyu. Bir talaba tarixiy shaxsga aylanadi, qolgan ta'lim oluvchilar unga savollar beradi. Beriladigan savollar tarixiy qahramon hayoti va faoliyatiga oid bo'lishi talab etiladi. Ushbu turdagi topshiriq oldingi vazifani bajarishga qodir bo'lgan dars ishtirokchilarini yaxshi tayyorgarligini talab qiladi. Tugallanmagan jumla usuli – Tarixiy shaxsdan, masalan, Sohibqiron Amir Temurga tegishli bo'lgan iborani davom ettirish so'raladi. ("Biz kim mulki Turon..."). Shunday qilib har qanday tarixiy voqealarning tugashini taxmin qilish tajribasini amalga oshirish taklif qilinadi. Tarixiy tanlov - "...siz qanday qilardingiz", "...kimni yoqlardingiz?", "Siz qaysi toifa tarafidasiz?", va b.». Mazkur savollar asosida ta'lim oluvchi tarixiy hodisalarni o'zida his qilgan holda tarixiy shaxslar o'rnida qaror qabul qilish va tarafni belgilashi mumkin bo'ladi. Chet ellik metodistlar dars jarayonida quyidagi vazifalardan foydalanishni taklif qilishadi: "Agar siz 15 yoshli Shoh Richard III bo'lsangiz, dehqonlarning qo'zg'olonlarida isyonchilar bilan kurashayotganda nimani his qilasiz? Ularning talablariga rozi bo'larmidingiz?" Ushbu vazifani bajarayotganda talabalar nafaqat tarixiy materiallarni bilishlarini, balki mavjud bilimlarni tahlil qilish orqali ham muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini taqdim etishlari kerak bo'ladi. Qayta tiklangan rasm - tarixiy rasmlarning monologlari yoki suhbatlari bilan tanishish.[4] Ushbu turdagi topshiriqni bajarayotganda talabalar tarixiy bilimlarni namoyish qilishlari kerakligini aniq tasavvur qilishlari talab etiladi, shuning uchun bu vazifa nafaqat darslik asosida, balki qo'shimcha adabiyotlarni jalb qilish bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Birinchi shaxsdan olingan kompozitsiya - turli janrlardan foydalangan holda bitiklar, xotiralar, kundalik yozuvlariga asosan guvoh yoki ishtirokchi nomidan o'tmish voqealari haqida hikoya qilinadi.[5]

## Xulosa

Tarix o'qitish va tarixiy tadqiqot jarayonida ta'lim ishtirokchilari va tadqiqotchilar oldida tarixiy atamalar va tushunchalarni tushunish, izohlash va ulardan foydalanish kabi til bilan bog'liq muhim vazifa turadi. Ingliz tadqiqotchisi Graham Swift in *Husbands* fikriga ko'ra o'tmish haqida turli yo'llar bilan tushunchalarga ega bo'lish, tarixiy shaxslarining qarashlari, e'tiqod va faoliyatlarini izohlash va tarixchilar tomonidan tarixiy jarayonlarni ifodalashlari uchun qo'llaniladigan, tarixiy ifoda va tushunchalarni o'zida jamlagan maxsus til "tarixiy til" deb nomlanadi. Tarix o'qituvchisining o'ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o'rgatish bilan birga uni kelajakga yetkazishni ta'minlashdir. Tarixni o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatlari va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Tarix o'qitish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib materiallar tayyorlash, masalan geografiya, fuqarolik bilimlari, diniy madaniyat va axloqshunoslik fanlaridagi ma'lumotlardan foydalanish talabalarga nafaqat mavzularni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi, balki umuman ijtimoiy voqeliklarni idrok etish va real hayotni tushunish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.[1]
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.– Б. 31[2]
3. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127).[3]
4. E. Perrot, *Effective Teaching*. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, *Effective Teaching*. Oxford: National Primary Center. – P.108.[4]
5. A. Harris, *Teaching and Learning in the Effective School*. Aldershot: Ashgate, 1999. – P.401.[5].